

YANGI KONSTITUTSIYA– IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLAR KAFOLATI

Qadambayeva Ozoda Umid qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Yurisprudensiya:biznes huquqi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: qadamboyeva@ozoda2@gmail.com

+998907371811

Annotatsiya: Mazkur maqolada Asosiy qonunimizda belgilangan fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari, uning mazmun-mohiyati, mamlakatimizda inson huquq, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, erkinlik, konstitutsiya, pakt, deklaratsiya, referendum.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida tub yangilanish islohotlari amalga oshirilmoqda, normativ-huquqiy hujjatlar, qonun loyihibariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilmoqda. 2023-yil 30-aprel umumxalq ovozi-referendum natijasida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizga fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, ekologik huquqlari bilan bir qatorda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari hamda manfaatlarini ta’milashga, himoya qilishga qaratilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan normalar kiritildi. Konstitutsiyada belgilangan iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar jamiyat hayotining moddiy asoslarini va munosib turmush tarzini yaratish hamda har bir shaxsning erkin rivojlanishini ta’milashga qaratilgan. Konstitutsiyamizning IX bobi “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar” ga bag‘ishlangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar – insonning yashash sharoitlarini, o‘z qobiliyatlaridan foydalanishini, insonning avtonomligi va jamiyatdagi iqtisodiy aloqalarini, shuningdek uning ijtimoiy himoyalanganligini belgilaydi.

Madaniy huquqlar – insonning konstitutsiya yoki qonun bilan kafolatlangan va insonning madaniy hamda ilmiy sohada o‘zini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadigan inson huquqlari va erkinliklarining maxsus majmuidir[1].

Asosiy qonunimizda quyidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar kafolatlangan:

- har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli ekanligi (41-modda)
- har bir shaxsning mehnat qilish sohasidagi huquq va erkinliklari (42-modda)
- Davlat fuqarolarning bandligini ta’milash, ularni ishsizlikdan himoya qilish choralari ko‘rishi (43-modda)
- majburiy mehnat taqiqlanishi (44-modda)
- dam olish huquqi (45-modda)
- ijtimoiy ta’minot huquqi (46-modda)

- uy-joyli bo‘lish huquqi (47-modda)
- har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi (48-modda)
- har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi (49-modda)
- ta’lim olish huquqi (50-modda)
- fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliv ma’lumot olishga haqli ekanligi (51-modda)
- o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish (52-modda)
- ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi (53-modda)

Shaxsning hayotini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalasi xalqaro umume‘tirof etilgan normalarda ham mujassamlashgan. Xususan, 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi hamda 1966-yil 19-dekabrda qabul qilingan “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar majmui o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Ushbu paktning 6–15-moddalarida bu huquqlar belgilangan bo‘lib, ular quyidagilar: mehnat qilish huquqi (6-modda),adolatli va qulay mehnat aharoitidan foydalanish huquqi (7-modda), kasaba uyushmalari tuzish va unga kirish huquqi (8-modda), ijtimoiy ta’minot olish huquqi (9-modda), oila, onalik, bolalik va o‘smlarlarni keng himoya qilish va yordam berish huquqi (10-modda), yetarli hayotiy shart-sharoitga ega bo‘lish huquqi (11-modda), jismoniy va ruhiy sog‘lomlikning eng yuqori darajasiga erishish va ma’lumot olish huquqi (12,13-moddalar), madaniy hayotda ishtirot etish huquqi (15-modda) va boshqalar[2].

Iqtisodiy va ijtimoiy huquq normalarining joriy etilishi jamiyat hayotining moddiy asoslarini mustahkamlab, insonlar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, ularning bu boradagi huquqlarini himoya qilishdan iboratdir.

Xulosa shuki, mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan norma va prinsiplariga muvofiq holda Konstitutsiyamiz va boshqa qonunlar bilan kafolatlab qo‘ylgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/itisodij-izhtimoij-va-madanij-uular>
2. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik / X.T.Odilqoriyev, O‘.X.Muxamedov, B.A.Saidov va boshq.; Mas’ul muharrir Sh. T. Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 661 b.
3. <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. <https://lex.uz/docs/-26860003>